

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**VETERINARIYA PROFILAKTIKASI VA DAVOLASH**

**FAKULTETI**

**HAYVONLAR ANATOMIYASI, GISTOLOGIYA VA  
PATOLOGIK ANATOMIYA KAFEDRASI**

60840100 – Veterinariya meditsinasi ta'lif yo'nalishi  
1- bosqich 105–guruh talabalari uchun

**“HAYVONLAR ANATOMIYASI”**

**fanidan**

**“Mayda uy hayvonlari organlarining tuzilishi”**

Ma'zusidagi amaliy mashg'uloti bo'yicha ochiq dars uchun ishlansasi

**O'qituvchi: assistent**

**O.N. Choriyev**

**Samarqand 2025**

**Tuzuvchi:**

**Choriyev O.N.** - “Hayvonlar anatomiysi, gistologiya va patologik anatomiya” kafedrasi assistenti

**Taqrizchilar:**

**Karimov M.G.** - “Hayvonlar anatomiysi, gistologiya va patologik anatomiya” kafedrasi dotsenti, vet.f.n.

**Alimov A.Sh.** - Samarqand shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i

## **Mavzu. Mayda uy hayvonlari organlarining tuzilishi**

### **Amaliy mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasi**

O‘quv soati: 80 daqiqa	Talabalar soni: 24
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Ko‘rgazmali laboratoriya -mashg‘ulot
Mavzu rejasi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mayda uy hayvonlari anatomiyasiga umumiyl tushuncha.</li> <li>2. Mayda uy hayvonlarining hazm va nafas olish tizimining anatomik tuzilishi.</li> <li>3. Mayda uy hayvonlari ichki organlar, qon tomirlar, asab tizimi, sezgi organlarining qishloq xo‘jalik hayvonlari organlaridan farq qiluvchi jihatlari.</li> </ol>
<i>Amaliy mashg‘ulotning maqsadi:</i> mayda uy hayvonlari skeleti, muskulaturasi, teri qoplami va hosila organlari, ovqat hazm qilish, nafas olish, siyidik ayirish, ko‘payish, yurak-qon tomirlar organlari tizim, nerv tizimi, sezgi organlarini o‘ziga xos anatomik tuzilishlari to‘g‘risida tasavvur hosil qilish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - mayda uy hayvonlarining skelet, muskul, teri qoplamasi tuzilishiga umumiyl tushuncha beradi; - mayda uy hayvonlarining ovqat hazm qilish, nafas olish, siyidik ayirish organlarini tuzilishidagi o‘ziga xosliklar mazmunini echib beradi; - mayda uy hayvonlarining yurak-qon aylanish, nerv tizimi organlarini anatomik xususiyatlarini tushuntiradi; mayda uy hayvonlarining sezgi organlarini anatiomik tuzilishi mazmunini yoritib beradi.	<i>O‘quv faoliyati natijalari:</i> Talabalar: - mayda uy hayvonlariga umumiyl ta’rif beradi; - mayda uy hayvonlarining organlarini anatomik tuzilishidagi o‘ziga xos xususiyatlarni tavsiflaydi.
<i>Ta’lim metodlari</i>	Teskor savol-javob, suhbat, klaster, aqliy xujum, dialogik yondashuv, muammoli ta’lim, taqqoslash.
<i>Ta’lim vositalari</i>	Amaliy mashg‘ulot ishlanmalari, skelet, rasmlar, videoproyektor, tirik quyon
<i>Ta’lim shakllari</i>	Jamoaviy, kichik guruhlarda ishslash.
<i>O‘qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalardan foydalanish va guruhlarda ishslashga mo‘ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki, savol-javob, reyting tizimi asosida baholash.

## Amaliy mashg‘ulotning texnologik haritasi

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	ta’lim beruvchi	ta’lim oluvchilar
1 - bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish(10 daq.)	1.1. Amaliy mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va rejasini ma’lum qiladi, mashg‘ulotdan kutilayotgan o‘quv natijalari bilan tanishtiradi	1.1. Tinglaydi vayozadilar.
2 - bosqich. Asosiy (60 daq.)	<p>2.1. Avvalgi mavzuni esga solish va amaliy yamashg‘ulot matnini o‘qish natijasida nimalarni o‘rganganligini aniqlash maqsadida blis-so‘rov o‘tkazadi.</p> <p>2.2. Mayda uy hayvonlari haqida ma’lumot beriladi.</p> <p>2.3. Mayda uy hayvonlari anatomik tuzilishi tushuntiriladi.</p> <p>2.4. Quyonning anatomic tuzilishi tirik hayvonda tushuntiriladi va ko‘rsatiladi</p> <p>2.5 Mavzuni mustaxkamlash uchun savol-javob o‘tkazish.</p>	<p>2.1. Eslaydi, savollarga javob beradi. Yozib boradilar.</p> <p>2.2. Sixema va jadvallar mazmunini muxokama qiladi. Savollar berilib, asosiy joylari yozib olinadi.</p> <p>2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javobberishga harakatqiladi.</p>
3 - bosqich. Yakuniy (10 daq.)	<p>3.1. Mavzuga yakun yasaydi, umumiylar xulosalarni shakllantiradi, faol ishtirot etgan talabalarni rag‘batlantiradi. Olingan bilimlarni ahamiyatini ochib beradi.</p> <p>3.2. Faollik ko‘rsatmagan talabalarga savollar beriladi va baxolanadi.</p> <p>3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlari bilan tanishtiradi.</p>	<p>3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. Topshiriqlarni yozib oladilar.</p>

### **Mayda uy hayvonlari organlarining tuzilishi.**

**O‘quv mashg‘ulotning maqsadi:** mayda uy hayvonlari skeleti, muskulaturasi, teri qoplami va hosila organlari, ovqat hazm qilish, nafas olish, siyidik ayirish, ko‘payish, yurak-qon tomirlar organlari tizim, nerv tizimi, sezgi organlarini o‘ziga xos anatomik tuzilishlari to‘g‘risida tasavvur hosil qilish.

**Ko‘rgazmali qurollar:** rasm, sxema, hayvon gavdasini maketi, tirik hayvon. Skelet, umurtqa suyaklari, rasm

**Darsning mazmuni:** Uy quyonlari (keyinchalik quyon) sut emizuvchilar sinfi, quyonsimonlar tartibiga kiradi. Dastlab ular kalamush, sichqon va og‘maxon lar bilan birgalikda kemiruvchilar tartibiga kiritilgan edi, chunki bularning barchasi iskanasimon, butun umri o‘suvchi, tomirlari ochiq kesuvchi tishlarga ega. Shunga

qaramasdan, uy quyonlarida ikki juft, kemiruvchilarda esa faqat bir juft bunday tishlar mavjud bo‘lgani sababli uy quyonlari va shu jumladan yovoyi quyon reklassifikatsiyaga uchradi. Quyonlar o‘txo‘r hayvon bo‘lib, katta sotsial guruhlarda yashaydi. Ular osonlikchayirtqichlar o‘ljasiga aylanadi va anatomiyasining katta qismi xavfni sezish va tez qochib ketishga moslashgan.

Yovvoyi evropa quyonidan barcha zamonaviy zotlar kelib chiqqan, uning vazni 2,5 kg bo‘lib, tanasi jigarrang tusli mo‘yna bilan qoplangan. Bunday tus dog‘li effekt berib, yashirinishga yordam beradi. Seleksion juftlashish natijasida 1-8 kg keladigan 50 ta zotlar rivojlanishiga olib keldi. Ularning mo‘ynasi har xil rangga ega, ammo ko‘pchiligi yovoyi tabiatda yashayolmaydi.

Quloqlari tik turgan, oval va uzun bo‘lib, uchlari qora. Quloqlari katta bo‘lgani sababli tana yuzasiga nisbatan 12 % ni tashkil qiladi. Ulardagi qon tomirlar juda rivojlangani uchun termoregulyasiya vositasi sifatida foydalanishga imkon beradi. Keyinchalik quloqlari osilib turadigan quyon zotlari yaratildi.

Ko‘zlar bosning ikki tomonida bo‘rtib turadi va yirtqichlarni aniqlash uchun keng monokulyar ko‘rish maydonini ta’minlaydi.

Quyonlar tongda va shomda faol bo‘ladi, shuning uchun ularning ko‘zlar intensivligi past yorug‘likka moslashgan. Terisi yumshoq bo‘lib, sezuvchan jun tolalari bilan qoplangan. Yuqori labi ikkiga bo‘linganligi uchun u juda kalta o‘tni ham kemirib oladi.

Yetilgan quyonlarda iyagi ostida terining katta buramasi mavjud. Ular tug‘ishdan avval iniga to‘sash uchun u erdan mo‘ynani yulqib oladi. Quyon terisi bezlar bilan yaxshi ta’minlangan, ular o‘z xududini belgilash uchun qo‘llanadi.

Bunday bezlarni iyak ostida, to‘g‘ri ichakda va oraliq sohasida topish mumkin.

Oldingi oyoqlar nisbatan kalta bo‘lib, erni kovlash uchun qo‘llanadi, orqa oyoqlar esa uzun bo‘lgani uchun

Undan tashqari, ular kovlab olingen erni orqaga o‘tkazishga yordam beradi. Har bir oldingi oyoqda beshtadan, orqa oyoqlarda esa to‘rttadan barmoqlar bor. Har bir barmoq o‘tkir changal bilan tugaydi, orqa oyoqlarda esa ular uzun va to‘g‘ri bo‘ladi.

Oyoqlar to‘liq junlar bilan qoplangan bo‘lib, yumshoqlar bo‘lmaydi. Quyon tinch holatda bo‘lganda u orqa oyoqlari bilan erga barmoqlardan to sakrash bo‘g‘imigacha tayanadi. Bir guruh quyonlar birga o‘tblab yurganda bittasi yoki ikkitasi yirtqichlarni poylash uchun albata orqa oyoklarida vertikal holatni egallaydi. Agar xavf bo‘lganda ular boshqalarni ogoxlashtirish uchun orqa oyoqlarini erga uradi. Bunday hatti xarakatlarni uy quyonlarida ham kuzatish mumkin. Quyonning dumi kalta va pastki yuzasi oq bo‘ladi. SHuning uchun quyon qochayotganda uning oq belgisi “miltillab” ko‘rinadi va boshqalarni xavf to‘g‘risida ogohlantiradi.

**Suyak** – muskul tizimi. Quyon suyaklari nozik bo‘lib, tana vazniga nisbatan faqat 7-8 % ni tashkil qiladi, bundan farqi o‘laroq mushuk skeleti 12-13 % ni tashkil qiladi. Uzun suyaklarning devorlari odatda mushuknikidan yupqaroq, katta yoshli quyonlarda jismoniy harakat yo‘qligi va kalsiy kam istemol qilinganligi uchun qo‘sishma osteoporoz rivojlanadi. Quyonga qo‘pol haraktlarsiz yondashish

lozim, chunki ziyod kuch ishlatilganda ularning suyaklari yoki umurtqa pog‘onasi lat eyishi mumkin.

Umurtqa pog‘onasining har bir qismida umurtqalar soni quyidagacha: C 7, T 12-13, L 7, S 4, CD 16.


Quyon va mushuk skeletlarining orasida bir nechta farqlar bor:

- Kurak suyagi ko‘proq uchburchak shaklda bo‘lib akromiondagi o‘simga yaxshiroq ifodalangan.

Bilak va tirsak to‘lig‘icha birikib ketgan, mushukda esa ular alohida – alohida bo‘ladi.

- Kichik boldir suyak katta boldir suyakdan ikki marta kalta bo‘lib, u bilan qo‘shilib ketgan; mushuklarda ular ular alohida – alohida bo‘ladi.

- Quyonning muskullarining rangi mushuknikidan ochroq bo‘ladi.




1. Cranium (Skull)	6. Femur	11. Tarsus	16. Radius	21. Atlas
2. Scapula	7. Ilium	12. Metatarsus	17. Carpus	22. Mandible
3. Spine	8. Sacrum	13. Phalanges	18. Metacarpus	23. Maxilla
4. Fibula	9. Caudal Vertebrae	14. Ulna	19. Sternum	
5. Tibia	10. Calcaneus	15. Ribs	20. Cervical Vertebrae	

**Hazm tizimi.** Quyonlar o‘txo‘r bo‘lib, uni kichik otga taqqoslaydilar, chunki quyon va ot ichaklarida o‘simglik ozuqani parchalanishi asosan yo‘g‘on ichakda kechadi. Ammo otlardan farqi o‘laroq, quyonning haz tizimi ozuqani tez o‘tishiga va o‘simglik tolalarini tez parchalashga imkon beradi. Bu hislat quyon kichik bo‘lishiga va natijada yirtqichlardan qochayotganda tez va chaqqon bo‘lishiga yordam beradi. Buning aksi – ot ichaklarida o‘simglik tolalari bir necha vaqt qolib ketishi katta va xajmli fermentativ kamera rivojlanishiga olib kelib, tabiiyki tana o‘lchamlari ham katta bo‘lgan. Quyonning oshqozon – ichak tizimi nisbatan uzun bo‘lib tana vaznidan 10-20% tashkil qiladi.

**Og‘iz bo‘shlig‘i.** Og‘iz katta ochilmaydi va o‘tni kesish uchun mo‘ljallangan, til nisbatan katta bo‘lib, og‘iz bo‘shlig‘i uzun va egilgan, buning hammasi orqa tishlarni tekshirish va traxeyani anesteziya qilishni qiyinlashtiradi barcha tishlar hayvon hayoti mobaynida to‘xtovsiz o‘sadi.

Tish formulasi: jami – 28 ta. Agar tishlar notekis bo‘lsa yoki ratsionda tolali ozuqa etarlicha bo‘lmaganda tishlar kerakligicha to‘g‘ri ishqalanmaydi va quyon

bir qator muammolar bilan to‘qnashadi: oziqlanganda qiynaladi, og‘zi to‘liq yopilmaydi.



Noto‘g‘ri tishlashish quyonni veterinarga ko‘rsatish uchun eng tarqalgan sabablardan biridir, ammo ratsionga ko‘p miqdorda sifatli xashakni qo‘sish bilan uning oldini olish mumkin. O‘sib ketgan kesuvchi tishlarni maxsus asboblar yoki kuchli tirnoq omburi bilan qisqartirish mumkin. Ammo ikkinchi usulning qo‘llanishi tavsiya etilmaydi, chunki tish uzunasiga snib, infeksiyaga yo‘l ochiladi.


Kesuvchi tishlarda emal fakat tashqi yuzada bo‘ladi va u ichki yuzaga nisbatan sekin emiriladi va natijada o‘simlikni kesish uchun o‘tkir iskana shaklini egallaydi. Yuqori jag‘dagi kesuvchi tishlarning ikkinchi jufti rudimentar holatda bo‘lib, bиринчи тишлар ўзгаришади. Premolyar va molyarlarlarning yuzi g‘adir budir bo‘lib ozuqani ezish uchun xizmat qiladi. Jag‘lar aylana bo‘ylab harakatlanib ozuqani ularning notejis yuzalariga keltiradi. Pastki tishlar yuqoridagilarga nisbatan tez o‘sadi.

**Oshqozon.** Oddiy yupka devorli kamera bo‘lib, ozuqani saqlash uchun xizmat qiladi va haqiqatdan ham hech qachon bo‘sh bo‘lmaydi. Oshqozon yaxshi rivojlangan kardial va pilorus sfinkterlari mavjud. Quyonlarda kardiaka oshqozonga nisbatan o‘ziga hos turgani sababli, ular qayt qilmaydi. O‘nikki barmoq ichak uzun va nisbatan tor. Yonbosh ichak ko‘r ichakda,

**Yo‘g‘on ichak.** Ko‘r ichak qorin bo‘shlig‘ida eng katta a’zo bo‘lib, o‘ng tomonda yotadi. Unga faqat bitta kirish yo‘li bo‘ladi, devorlari yupqa, shakli esa qopsimon. U ichak o‘sintasi ya’ni limfold to‘qimaga boy apendiksda tugaydi.

**Hazm qilish.** Quyonlar bir kamerali oshqozonga ega o‘txo‘r hayvonlar. Qabul qilingan o‘simlik ashysosi peristaltika yordamida hazm trakt bo‘ylab pastga o‘tadi va oshqozon va ingichka ichakda fermentativ ishlovga chalinadiga. Qisman hazm bo‘lgan material ko‘richakka tushib, o‘simlik hujayral devorlaridagi selyulozani fermentatsiya va parchalash uchun xizmat qiladigan mikroorganizmlar bilan aralashadi. Keyin yarim suyuq massa yo‘g‘on ichakka o‘tadi. Qarshi peristaltika ta’sirida u yana ko‘r ichakka qaytadi va ikkinchi marotaba fermentatsiya qilinib tolali qismi tolasizdan ajratiladi, bu jarayonda ikki xil fekaliylar hosil bo‘ladi:

- Qattiq tolali ozuqa qabul qilingandan 4 soatdan so‘ng ishlab chiqariladi. Tolalar oshqozon – ichak traktdan tez o‘tib, ichak funksiyasi stimulyasiyasida muhim o‘rin tutadi, ammo hech qanday to‘yimlikka ega emas.



- Yumshoq ozuqa qabul qilingandan 3-8 soatdan so‘ng, asosan tunda ishlab chiqariladi. U shilliq bilan qoplangan, yashil rangli kletchatka juda kam bo‘lib, oqsil, V va K guruh vitaminlari va uchuvchi yog‘ kisslotalarga esa boy. U chaynamasdan yutiladi. Qayta yutilgan massa ustidagi shilliq qoplama uni ozqozon shirasidan himoyalaydi, ingichka ichakda esa so‘rilishini osonlashtiradi. Quyon shunday tartibda mikroblı fermentatsiya ishlab chiqaradigan moddalarni organizmga singdiradi. Ozuqa massasi hazm tizimidan 24 soatda ikki marta o‘tadi.

**Nafas olish tizimi.** Quyon burundan nafas oluvchidir, ya’ni u burundan nafas oladi. Og‘iz orqali nafas olish yomon prognostik belgi bo‘lib hisoblanadi. Burun uchi daqiqaga 20-120 marta qimirlaydi, ammo umumiylar narkoz ostida to‘xtaydi. Tovush yorig‘i kichik, til esa katta bo‘lgani sababli uni ko‘rish qiyin. Bu hol intubatsiyani qiyinlashtiradi, shuning uchun reflektor laringospazm rivojlanmasligining oldini olish zarur.

Timus katta hayvonlarda ham yirik bo‘lib qolaveradi. U yurakdan pastroq joylashib, oldinga, ko‘krak qafasiga kirish joyigacha davom etadi. Ko‘krak qafasi kichik bo‘lgani sababli nafas olinishi asosan diafragma orqali bajariladi. O‘pka har tomonda uch bo‘lakdan iborat. Uning old bo‘lakchalar kichik.

**Siydik ayirish tizimi.** Buyraklar tuzilishga ega, ya’ni yagona so‘rg‘ichdan buyrak jomiga keyin siydik yo‘liga o‘tiladi.

Siydik yo‘llari devorlari yupqa ammo mustaxkam qovuqqa boradi. Undan boshlangan siydik chiqarish kanali qinning qorin devorida ochiladi;

**Siydik.** Sog‘lom quyonda uning rangi to‘q qizildan sariqqacha yoki oq bo‘lishi mumkin. Tiniqligi bo‘yicha u tiniq yoki xira (kalsiy mavjudligi bilan bog‘liq) bo‘lishi mumkin. Buyraklar kalsiyini chiqarish uchun yagona yo‘ldir, uning qon zardobidagi miqdori ozuqa ratsioniga bog‘liq – ko‘p iste’mol qilinganda aorta yoki buyrak kalsifikatsyaga uchraydi.

### Reproduktiv tizim.


Erkak quyon abuck nomi bilan ma’lum. Ikkita urug‘don jinsiy a’zodan oldinroq, jun bilan deyarli qoplanmagan urug‘don xaltasida yotadi. Urug‘donlar 12 haftalikda yorg‘oqqa tushadi, ammo chov kanali ochiq bo‘lib qoladi; penis ichida

suyak bo‘lmaydi. So‘rg‘ichlar bo‘lmaydi.

Urg‘ochi quyon adoe nomi bilan ma’lum. Uning reproduktiv trakti, ya’ni bachadonining ikki shoxi bo‘ladi. Bachadon tanasi bo‘lmaydi va har bir shox qinda o‘z bo‘yinchasiga ega. Mesometrium yog‘ to‘qimasini saqlaydigan asosiy a’zolardan biri. Urg‘ochida 4 yoki 5 juft so‘rg‘ichlar bo‘ladi.

Yovvoyi quyon bolalarini bir kunda bir yoki ikki marta oziqlantiradi, shu sababli ular er osti inida xavfsizlikda yotadi. Quyonchalar mustaqil bo‘lgandan so‘ng faqat bir necha daqiqa oziqlanadi, kattaraverган sari bu vaqt yana qisqaradi. Bu qonuniyat uy quyonlarda ham kuzatiladi

Jinsiy differensiatsiya. Yosh quyonning jinsini aniqlash dastlab qiyin bo‘lishi mumkin, ammo urug‘donlar yorg‘oqqa tushgandan so‘ng bu ish osonlashadi.




### Odam va quyonning hazm oorganlarini solishtirma anatomiysi.


- **Erkak:** jinsiy a’zo tashqariga oson siqib chiqariladi va uning uchi uchqur. 5 haftalik quyon bolasining urug‘don xaltasi nisbatan katta va junsiz bo‘lib, ichida bosganda harakatchan urug‘donlar bo‘ladi. Urug‘donlar jinsiy a’zodan oldinroq, ikki tomonida joylashadi.

- **Urg‘ochi:** qin dahlizining teshigi yoriqsimon. Sut bezining 8 juft so‘rg‘ichlari ko‘krak va qorin devorining ventral devori bo‘ylab joylashgan. Kesarcha kesish. Urg‘ochida kesarcha kesish bajarilganda bolani olish uchun har bir bachadon shoxi aloxida kesilishi kerak, chunki har bir shox o‘z bo‘yinchaga ega bo‘lgani sababli bolani bir shoxdan ikkinchisiga siljитib bo‘lmaydi.

**Самец**



**Самочка**



**Test savollar**

**1. Skeletning ko'krak bo'limida quyonlarda nechta umurtqa mavjud?**

- A) 12-13
- B) 15-17
- C) 14-16
- D) 16-17

**2. Skelet muskullari qaysi to'qimadan tashkil topgan?**

- A) silliq muskul
- B) ko'ndalang-targ'il muskul
- C) biriktiruvchi
- D) epiteliy

**3. Quyonlarning oshqozoni qanday oshqozon?**

- A) bir kamerali
- B) ko'p kamerali
- C) ikki kamerali
- D) uch kamerali


**4. Quyonlarning tishlarining soni nechta ?**

- A) 24
- B) 26
- C) 20
- D) 28

**5. Quyonlarning bachadoni qaysi tipda bo'ladi?**

- A) ikki shoxli
- B) oddiy
- C) qo'shaloq
- D) ikkiga bo'lingan

**Topshiriq rasmdagi quyonning ichki organlarini belgilang.**



### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Dilmurodov N.B., Eshmatov G.X. Tursagatov J.M., Doniyorov Sh.Z. «Hayvonlar anatomiyasi» fanidan amaliy laboratoriya mashg‘ulotlar bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2023. – 300 b.
2. Юдичев Ю.Ф., Дегтяров В.В., Хонин Г.А. «Анатомия животных». Том 1. Оренбург, 2013. – 298 с.
3. Юдичев Ю.Ф., Дегтяров В.В., Гончаров А.Г. «Анатомия животных». Том 2. Оренбург, 2013. – 406 с.
4. Климов А.Ф., Акаевский А.И. “Анатомия домашних животных” Москва, 2003. – 560 с.
5. Shodiyev N.Sh., Dilmurodov N.B. «Sitologiya, histologiya va embriologiya». Toshkent, 2015. – 339 b.
6. Victoria Aspinall. Veterinary anatomy and Physiology. Textbook. New-York, 2015. – 275 Pp.

## **Internet saytlari**

- 1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).**
- 2. [www.vetjurnal.uz](http://www.vetjurnal.uz)**
- 3. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)**
- 4. [www.veterinariy.actavis](http://www.veterinariy.actavis)**
- 5 . [www.Kodges.ru](http://www.Kodges.ru)**







